



TA'LIMDA MUAMMOLI-MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI

Ochilova Afruza

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti xorij filologiyasi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik mahoratni oshirishga ta'sir etuvchi omillardan biri – innovatsion pedagogik texnologiya – muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogik mahorat, muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается один из факторов, влияющих на развитие педагогического мастерства - инновационная педагогическая технология - проблемно-модульная технология обучения.

Ключевые слова: образование, педагогическое мастерство, технология проблемного обучения.

Annotation. This article discusses one of the factors influencing the development of pedagogical skills - innovative pedagogical technology - problem-modular learning technology.

Key words: education, pedagogical skills, problem-based learning technology.

Kirish. Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Ma'naviyat bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va bunda ta'limning o'rni nihoyatda kattadir.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab va ko'p komponentlidir. Ta'lim samaradorligi pedagog va ta'lim oluvchining faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy-metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmiy kishilarga bo'lgan ehtiyojga va boshqa hali aniqlanmagan ko'pgina omillarga bog'liq. Jamiyat o'zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlari asosida ta'lim samaradorligi yuqori bo'lishini talab etadi.





O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy strukturalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "... shuni yaxshilab tushunib olishimiz kerak, jamiyatimizni yanada rivojlantirish uchun, avvalo, bilimdon va harakatchan, aqlli va zukko, o'ziga ishongan va o'z fikri-yu g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak", deganida ta'lim islohotlariga ham to'xtalgan edi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat etib belgilangan bo'lib, inson qadri indeksini oshiruvchi hamda manfaatlariga xizmat qiladigan barcha sohalarni rivojlantirish qatorida Yangi taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi sifatida **adolatli ijtimoiy siyosat** yuritiladi, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e'tibor markazida bo'ladi².

Materiallar va metodlar. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda tizimli yondashuv, monografik kuzatish metodlaridan foydalanilgan.

Asosiy qism. Ta'lim sifatini oshirishga ta'sir etuvchi innovatsion texnologiyalardan biri – muammoli-modulli texnologiyadir.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi dastlab AQSH, Germaniya, Angliya kabi rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish tizimida qo'llanila boshlandi. Modulli ta'lim o'zining yetarlicha "puxta"ligiga qaramasdan hanuzgacha tortishuvlarga, fikrlar qarama-qarshiligiga uchrab kelyapti. Qator xorijiy mualliflar (B.Goldshmidt, M.Goldshmidt va boshqa) modul deganda aniq o'rnatilgan maqsadga erishishga yordamlashadigan yaxlit o'quv faoliyatini shakllantirishni tushunishadi.

P.A.Yusyavichenening ko'rsatishicha, "modulli o'qitish mohiyati shundan iboratki, o'rganuvchi qisman yoki to'liq mustaqil ravishda unga taklif etilayotgan o'zida harakatlarning maqsadli dasturini, axborotlar bankini va qo'yilgan didaktik maqsadga erishish bo'yicha metodik ko'rsatmani qamrab olgan individual o'quv

¹ Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik davlatni birgalikda barpo etamiz. - T. "O'zbekiston", 2016

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.





dasturi bilan ishlashi mumkin. Bunda pedagog vazifasi axborotli nazorat qilishdan tortib maslahatchi - koordinatsiyalovchilikka qadar turlanishdan iborat bo'ladi".

Professor M.A.Choshanov ham keyingi fikrga qo'shilgan holda fan rivojining hozirgi bosqichida modullilik tushunchasi metodologik mazmunga ega bo'layotganligini alohida ta'kidlaydi.

Muammoli o'qitishning didaktik tizimida birmuncha to'liq tadqiq qilingan tashkil etuvchisi muammoli ta'lim hisoblanadi. U o'rganuvchilarning fikrlash faoliyatini birmuncha faollashtirishga, ularda muammoning yechimiga yondashishni shakllantirishga, va nihoyat - ijodiy tafakkurni rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlarini - muammoli vaziyatlar va ularning yechimlarini tuzish bilan ta'minlanadi. Muammoli vaziyat o'qitish jarayonida muhim motiv va hayajonli vosita sanaladi. Uning samarasi to'g'risida A.M Matyushkin, M.I. Maxmutov, I. Y. Lerner kabi yirik olimlar o'z nazariyalarini yaratdilar³.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatoliklarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o'rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining yetakchi sifat belgisi - bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining quyidagi jihati bilan ta'minlanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholash tizimining egiluvchanligi, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa. M.A.Choshanovning ta'kidlashicha, kasb maktablarida o'qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o'tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialining muammoli modullarini guruhlash yo'li bilan kursni to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarini ishlab chiqishni ta'minlaydigan dialektik birlikda integratsiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;

³ Самуйленков Ф. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учителя – М.: "Просвещение", 1990. - 254 с.





- bilim darajasiga bog'liq holda ta'lim oluvchilarning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo'ylab individual siljish sur'atini ta'minlanishi;
- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarni yaratish uchun ssenariylar sifatida foydalanish;
- ta'lim oluvchiarning bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchi ishida maslahatchi-koordinatsiyalovchi vazifaga urg'uni ko'chirish;
- o'quv materialini bayon qilish tezligi va o'zlashtirish darajasiga putr yetkazmagan holda o'qitish metodlari va shakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartirish.

Xulosa. Muammoli-modulli o'qitishning qator kamchiliklari ham mavjud. Ular: ta'lim jarayonining bo'laklarga bo'linganligi, ya'ni ta'lim oluvchiarning mustaqil ishlari salmog'i birmuncha katta; o'quv predmetining yaxlitligi va mantiqini inkor etish; ta'lim oluvchiarni tayyorlash torligi; o'qitish kursining bog'liq bo'lmagan muammolar yoki masalalar seriyasiga qadar qisqarishi; umumlashmaga ziyon yetkazadigan xususiy, aniq ko'nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlash va mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlikning ko'p mehnat talab qilishi.

Sanab o'tilgan kamchiliklarning ko'pligi modulli o'qitish texnologiyasini o'rnatish bosqichida birmuncha aniq sezilsa-da, asta-sekinlik bilan dazmollanib boradi. Shuni eslatish joizki, u yoki bu texnologiyani "toza" holda joriy etish mumkin emas. Xohlaymizmi yoki yo'qmi, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy yondashuviga va mavjud didaktik jarayonga tayanishga to'g'ri keladi.

Ta'lim mazmunini muammoli-modulli loyihalash quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo'ladi:

- bilish faoliyatining fundamental metodlari doirasida kursni joy-joyiga qo'yib tuzish. Misol uchun, matematika kursida bunday metodlarga matematik modellashtirish, aksiomatik, koordinat, vektorli, mantiqiy metodlar kiradi;
- tayanch muammoli modullarning mazmunini aniqlash. Saralashning muhim sharti bilish faoliyati metodlarining prinsipli mazmuni hisoblanib, umummadaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o'qitishning tayanch mazmuniga oid quyidagi mezonlarni hisobga olishni taqozo etadi:
 - fundamental, uzviylik, uzluksizlik va ta'limni insonparvarlashtirish;
 - yechimi bilish faoliyati metodlarining mosini qo'llashni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarining o'ziga xosligini hisobga olib ajratish va h.k.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik davlatni birgalikda barpo etamiz.- T. “O‘zbekiston”, 2016
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Самуйленков Ф. Мастерство, педагогический такт – это авторитет учителя – М.: “Просвещение”, 1990. - 254 с.
4. Самиева Г. РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ//INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND EDUCATION. – 2024. – Т. 1. – №. 11. – С. 80-86.
5. Самиева Г. Т. РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ СЛУЖИТ ПОВЫШЕНИЮ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-1 (120). – С. 1597-1600.

